



“TASDIQLAYMAN”

**Urganch innovatsion universiteti
ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha
prorektori M.M.Masharipov**

Urganch innovatsion universitetida **“Mahmudxo‘ja Behbudiy — Turkiston
jadidchilik harakatining asoschisi”** mavzusida o‘tkazilgan ilmiy-amaliy anjuman
to‘g‘risida

Bayonnoma

17.01.2025

Urganch shahri

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **“Turkiston jadidlik harakatining asoschisi, atoqli adib va jamoat arbobi, noshir va pedagog Mahmudxo‘ja Behbudiy tavalludining 150 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”**gi 2024-yil 27-dekabrda **PQ-462-son qarori** ijrosini ta‘minlash maqsadida Urganch innovatsion universitetida **“Mahmudxo‘ja Behbudiy — Turkiston jadidchilik harakatining asoschisi”** mavzusida ilmiy-amaliy anjuman o‘tkazildi. Mazkur respublika anjumanda universitet mutaxassislari, sohalarning malakali kadrlari bilan bir qatorda Samarqand, Farg‘ona, Toshkent shahridagi nufuzli oliy ta‘lim muassasalari, tashkilotlarining yetakchi olimlari, professor-o‘qituvchilar, mustaqil izlanuvchilar, tayanch doktorantlar va talabalar ishtirok etishdi. Anjumanni Urganch innovatsion universiteti **rektor maslahatchisi, professor Xushnut Bobojonov** ochib berdi. So‘z boshida professor Mahmudxo‘ja Behbudiyning ham yozuvchi, ham noshir, ham pedagogligini alohida ta‘kidlab, xalqni ilm-ma‘rifatli qilish uchun ko‘rsatgan fidoyiliklarini aytib o‘di. Shundan so‘ng hozirgi kunda Samarqand viloyatida istiqomat qilib kelayotgan **Mahmudxo‘ja Behbudiyning nabirasi Shohrux Behbudiy** so‘zga chiqib, universitet rahbariyatiga, jumladan, shu anjumanni tashkilotchilariga chuqur minnatdorchilik bildirdi. Keyin jadidlar hayot tarzini, ular uchragan qiyinchiliklarni tasvirlab beruvchi videorolik namoyish etildi.


Shuningdek, ushbu ilmiy-amaliy anjumanda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti **“O‘zbek adabiyoti tarixi va matnshunoslik”**

kafedra mudiri, filologiya fanlari doktori, **professor Nurboy Jabborov** ham o'z ma'ruzasi bilan ishtirok qildi. Professor Mahmudxo'ja Behbudiyning "Kitobat ul-atfol" darsligida o'rgatishga mo'ljallangan xat turlari bo'yicha ma'lumot berdi. Bundan tashqari davlat boshqaruv tizimlari, davlat organlarining qanday faoliyatlar bilan shug'ullanishlari to'g'risidagi Behbudiyning fikrlari bilan o'rtoqlashildi. Samarqand davlat chet tillari instituti, "**O'zbek tili, jurnalistika va kompyuter lingvistikasi**" kafedra katta o'qituvchisi, **PhD Dilafro'z Rahmatova**, Urganch innovatsion universiteti **ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori, PhD., dotsent Mansurbek Masharipov**, **yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektori, PhD., dotsent Nurbek Matyaqubov**, universitet tarix yo'nalishi talabasi **Otaboyeva Ro'za**, boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi **Tohirova Sevinchoylar** ham Behbudiy hayoti va ilmiy, ijodiy faoliyatiga doir ma'ruzalari bilan ishtirok qildilar.

Xulosa qiladigan bo'lsak, Mahmudxo'ja Behbudiy ta'limni millatning yuksalishidagi asosiy omil sifatida ko'rgan. U: "*Millatni yo'qotish uchun uni johil qoldirish kifoya*", - degan fikrni ilgari surib, ilm-fan va ma'rifatning ahamiyatini ta'kidlagan. Shuning uchun ham u ta'lim masalalarini o'z davrining eng dolzarb muammosi sifatida ko'rgan va bu yo'nalishda ulkan mehnat qilgan. Uning asarlarida ilgari surilgan ta'limga oid g'oyalar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan degan fikrlari bilan talaba o'z nutqini yakunladi. So'z so'ngida **yo'zuvchilar uyushmasi a'zosi Sayyora Samandarova** Behbudiy ijodidagi sof vatanparvarlik ruhini tahsinga loyiq ekanligini aytib o'tdi. Vatanni sevish, uning har qarich yerini e'zozlashda yoshlarga o'rnak sifatida Mahmudxo'ja Behbudiyning, uning yaratgan asarlarini keltirish mumkinligini aytdi. Shu bilan birga anjuman qatnashchilariga, uni tashkillashtirishda jonbozlik ko'rsagan universitet ilmiy bo'lim jamoasiga chuqur minnaddorlik bildirdi. Anjuman yakunida barcha ishtirokchilarga sertifikatlar taqdim etildi.

Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik

kadrlarni tayyorlash bo'limi boshlig'i:



A. Abdullayev

Anjumandan lavhalar





